



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA TURLARI VA METODLARI

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi I bosqich talabasi

Allanazarova Mohigul

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya tushunchasining mazmun-mohiyati keng yoritilib, uning jamiyat va shaxs rivojidadagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tarbiyaning asosiy turlari, xususan axloqiy va ekologik tarbiya yo'nalishlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga tarbiya berishda qo'llaniladigan samarali metodlar, jumladan ongni shakllantirish, axloqiy rag'batlantirish va amaliy faoliyat orqali o'rgatish usullari yoritilgan. Tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhimligi alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: metod, axloqiy tarbiya, ekologik tarbiya, axloqiy rag'batlantirish, ongni shakllantirish usullari

Annotation: This article provides a comprehensive explanation of the concept of education and reveals its importance in the development of both society and the individual. It analyzes the main types of education, particularly moral and ecological education, and their specific characteristics. The article also highlights effective methods used in teaching primary school students, including methods of consciousness formation, moral encouragement, and learning through practical activities. Special attention is given to the importance of considering age characteristics in the educational process.

Keywords: method, moral education, ecological education, moral encouragement, methods of consciousness formation.



Аннотация: В данной статье подробно раскрывается сущность понятия воспитания и его значение в развитии личности и общества. Рассматриваются основные виды воспитания, в частности нравственное и экологическое, а также их особенности. Освещаются эффективные методы воспитания учащихся начального образования, включая методы формирования сознания, нравственного стимулирования и обучения через практическую деятельность. Особое внимание уделяется учёту возрастных особенностей учащихся в процессе воспитания.

Ключевые слова: метод, нравственное воспитание, экологическое воспитание, нравственное стимулирование, методы формирования сознания.

Kirish Ba'zi adabiyotlarda ya'ni pedagogika bilan o'zaro bog'liq adaboyotlarda. Tarbiya atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakillantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetaklovchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniya va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy – axloqiy qiyofasi, estetik didning o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holardagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning nafaqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifalarining qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.



.Yosh avlodning, umuman,jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan .Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yonadashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy hususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash qaror topgan .Lekin,dunyo ilmi, ayniqsa Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq pedagogikasi tarbiyasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishiga ega emasligini isbot etadi.So'rolar davrida tarbiya orqali har qanday odamni istalgan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin degan qarash hukmron bo'lganligi sababli ham uning shaxsni shakillantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berishadi.O'zbekiston mustaqillikka erishgach,tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi.Uni izohlashda g'ayriilmiy, sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari ,o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganilyapti. Natijada, O'zbekiston pedagogikasi fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham ,ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos o'rni borligi tan olina boshlandi. Bizlarning ota-onalarimiz yoshligimizdan tarbiya berishni boshlashgan bo'lsa,biz ham albatta kelajakda o'z farzandlarimizga ularni o'smir vaqtga yetib borgunlariga qadar tarbiya jarayonlarini amalga oshiramiz.Negaki,farzandlarimizning yoshlari ulg'ayib,o'smirlik,o'sprinlik davrlariga yetib borganlari sari ularda psixologik ,garmonal hattoki,ularning ba'zi bir xulqatvorlarida ham sezilarli darajada o'zgarishlar yuz beradi.Agar biz ana shu farzandni yoshligidan, to'g'ri tarbiya bilan o'stirgan bo'lsak, shunday vaziyatlarda u, bu holatdan chiqib ketishi unchalik muammo tug'dirmaydi.Har bir shaxsning tarbiyasi uchun nafaqat ota-onasi balki,unga bilim berayotgan o'qituvchi,muallimlari ham mas'uldir.Shuning uchun bu masalada hech birimizning befarq bo'lishimizga haqqimiz yo'q. Tarbiya



jarayonining ham o'ziga yarasha bir qancha metodlar va turlari mavjud. Tabiya turlarini kengroq talqinda o'rganadigan bo'lsak u quyidagilardan iborat.

1. Aqliy tarbiya
2. Jismoniy tarbiya
3. Axloqiy tarbiya
4. Iqtisodiy tarbiya
5. Mehnat tarbiyasi
6. Estetik tarbiya
7. Ekologik tarbiya

Aqliy tarbiya-ta'lim oluvchilarni fan asoslariga oid bilimlar tizimi bilan qurollantiradi. Aqliy tarbiya barkamol inson tarbiyalashning yrtakchi tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarni tabiat va jamiyat ,kishi tafakkuri haqidagi bilimlarini o'zlashtirib olishlari, ularda ilmiy dunyoqarash ,yuqori ohanglilik xislatlarini tarbiyalash ,fan asoslaridan xabardor qilish ,tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirishni maqsad qilib qo'yadi. Bilimlar tizmini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash ,xotira ,diqqat, idrok etish ,aqliy qobiliyat ,mayillik va iqtidorlarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Jismoniy tarbiya-Deyarli butun tarbiya tizmining ajralmas tarkibiy qismi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat ,korxonalarda yuqori unum bilan ishlashga qodir har qanday qiyinchiliklardan cho'chimaydigan ,shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda. Jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlardan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya- ijtimoiy ong shakillaridan biri bo'lib ,insonlarning o'zi ,do'st-birodarlari ,jamo



a'zolari va tabiatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi xulq-odob qonunqoidalarining majmui .Axloq kishining xulq-atvori, e'tiqod-iymon,i yurish-turishi ,fikrmulohazalari ,mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi.Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi ,unda ichki intizom kuchli bo'ladi. Iqtisodiy tarbiya – tashkil etilgan pedagogik faoliyat, o'quvchilarning iqtisodiy ongini shakillantirishga qaratilgan maxsus o'ylangan ish tizmi .Uni amalga oshirish jarayonida maktab o'quvchilari uyushtirilgan va samarali iqtisodiyot,ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi ,ishlab chiqarish munosabatlari ,amaldagi xo'jalik mexanizimi haqidagi tushuncha va g'oyalarni o'rganadilar, Iqtisodiy tarbiya iqtisodiy tafakkurning rivojlanishini ,iqtisodiy faoliyatida shakillanadigan axloqiy va ishbilarmonlik fazilatlarini shakillantirishni ta'minlaydi. Mehnat tarbiyasi- mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi ,hayot manbai,umr mazmuni hisoblanadi.Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad ,avvalo, o'quvchilarga mehnatning mohiyati ,mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir.Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishining natijalarini ko'rsa,his qilsa ,o'sha natijalardan qoniqsa,rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.Halol mehnat –kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi. Estetik tarbiya-estetik tarbiya esa kishida bola tug'ilganidan boshlab to umrining oxirigacha amalga oshiriladi.Shu sababli,u nafaqat maktabda ,balki sinfdanva maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriluvchi tadbirlarda,turli anjumanlarda yosh avlodni go'zallik va nafosatni his etishiga undovchi vositadir. Ekologik tarbiya-bu insonni tabiatga ehtiyotkorona munosabtda bo'lishga ,tabiiy suvlar,yerlar atmosfera va o'rmonlarning sanoat rivojlanishining mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini oldindan bilish va oldini olishga undaydi. Biz quyidagi tarbiya turlarini o'quvchilarga o'rgatish uchun bolaning psixologik,fizologik holatidan kelib chiqqan holda ,turli metodlardan foydalanishimiz mumkin.Tarbiya usullarining har qanday tasnifi ma'lum mezonga asoslanadi,ya'ni asosiy xususiyatga ko'ra ,qaysi usullar guruhlarga bo'linadi va ajratiladi. Shaxs ongini shakillantirish usullari. Suhbat- frontal va individual bo'lishi mumkin.Ayniqsa,individual suhbatlar



qiyin, chunki yuzaga kelgan nizolar, intizom buzilishi munosabati bilan o'tkaziladi. Ma'ruza-tarbiya metodi sifatida litsey, kollej o'quvchilari bilan ishlashda qo'llaniladi. Mutaxassislar tomonidan siyosat, san'at, fan, texnologiyaga oid turli mavzularga ma'ruzalar o'tiladi. Ongni shakillantirish usullari-Ishontirish usuli tarbiyaning yetakchi usuli hisoblanadi. Qo'llash shakillari –mustaqillik darslari, ma'naviy –ma'rifiy suhbat, bahs-munozara, ma'ruza, hikoya, sharx, o'qish. Samarali foydalanish shartlari: o'quvchilarning shaxsiy e'tiqodi va mafkurasi, ilmiy tayyorgarligi, o'qituvchining bilimdonligi, rostgo'yiligi va samimiyligi, aqliy hissiy birligi, nazariya va faktlarning birligi munosabatlarga ishonchi, o'quvchining xushmuomilaligi, sinf, xususiyatlarini hisobga olgan holda, yosh xususiyatlarini hisobga olish, jamoatchilik fikriga tayanish, boshqa tarbiya usullari bilan uyg'unlik. Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribasini shakillantirish usullari. Xulq-atvorni shakillantirish usullariga mashqlar, ko'nikish, pedagogik talab, jamoatchilik fikri, tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish kiradi. Mashq takroriy takrorlashni, mustahkamlashni, xulq-atvorni kuchaytirishni ta'minlaydi. Pedagogik talab nafaqat shaxs rivojlanishidan ustub bo'lishi balki, bilimli shaxsning o'ziga qo'yadigan talabiga aylanishi kerak. O'qitish-uchun muayyan harakatlarni tizimli va muntazam ravishda bajarishni tashkil etish. Odatning o'zi muhim emas, u shaxsning mulki yoki sifatiga aylanishi kerak. Maqsad-O'quvchilarni ma'yori va qoidalarni amalga oshirishga o'rgatish, birgalikdagi faoliyat va muloqot usullarini ko'rasatish, modelga muvofiq faoliyatning qimmatli usullarini takroriy takrorlash va mustahkamlash. Qo'llash shakillari-rejim, topshiriqlar, (o'quv, mehnat, jamoat, ijtimoiy foydali) xulq-atvor madaniyati bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, ijobiy harakatlar uchun vaziyatlarni tashkil etish. Samarali foydalanish shartlari-o'quvchilar o'qituvchilarda shakillantirayotgan sifatning ijtimoiy ahamiyatini bilish; talabalar mashqning yakuniy natijasini aniq ifodalaydilar, mashqlarni tizimli va izchil tashkil etish; Bosqichma-bosqich murakkablashishi; boshqa usullar bilan aloqasi. Xulq-atvorni rag'batlantirish usullari. Rag'batlantirish usullariga



musoboqalar, mufkofotlar, jazolar kiradi. Rag'batlantirish- raqobat-bolalar raqobatdosh faoliyatni yaxshi ko'radilar. Buijodiy faollik, tashabbuskorlik, yangilik, mas'uliyat, kollektivizmni rivojlantirishni rag'batlantiradi. Rag'batlantirish-bu shaxs va jamoaning hatti-xarakatlariga, faoliyatga jamoatchilik tomonidan ijobiy baho berish, xizmatlarni e'tirof etish usuli.

Axloqiy rag'batlantirish-axloqiy (maqto'v, ma'qullash, minnatdorchilik bildirish, faxriy komissiya, maktab kitobiga yozuv, ota-onalarga xatva boshqalar); material (faxriy yorliq, diplom, qimmatbaho sovg'a va boshqalar bilan taqdirlash) Samarali foydalanishartlari-jamoaviy fikrga tayanish, rag'batlantirishning xosligi, rag'batlantirish shaklining o'quvchining xizmatlariga muvofiqligi, reklama targ'iboti, choratadbirlarga qat'iy rioya qilish; o'quvchining yosh va individual xususiyatlarini, uning harakatlarining motivlarini hisobga olish, tarbiyaning boshqa usullar bilan aloqasi. Demak, Tarbiya tarixiy-ijtimoiy tajribaga tayangan holda shaxsni ma'lum maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi faoliyat jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalanib kelingan bo'lib, uning mazmunini ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya maqsadi kelajakda nimaga erishish, uning uchun qanday sa'y harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq jarayondir. Eng oddiy harakatdan tortib to keng ko'lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Maqsadsiz, ma'lum g'oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Tarbiya maqsadi umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg'unligini namoyon etadi. Maqsad tarbiyaning umumiy ijtimoiy maqsadni hal etishga yo'naltiriladi hamda aniq vazifalar tizmi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarbiya maqsadi-bu tarbiya orqali hal etiladigan vazifalar tizmidir. Tarbiya maqsadlari mohiyati va ko'lamiga ko'ra umumiy va aniq vazifalar sifatida



guruhlanadi. Tarbiya jarayoni o'ziga hos xususiyatlarga ega.Uning muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir.Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir.Zero,tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatlari tashkil etiladi,boshqariladi va nazorat qilinadi. Jamiyat ma'naviyati va shaxs kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axloqiy poklik,iymon,insof,diyosat,or-nomus,mehr-oqibat,keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakillanmaydi.Barchasining asosida yosh avlodga oila,umumiy o'rta,o'rta maxsus,kasb-hunar hamda oliy ta'lim tizmida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni,g'oyaviy yo'nalishi va samarasi yotadi

Foydalanilgan adabiyotlar,

1. Pedagogika''-B.S.Siddiqova ,D.F.To'xtasinov,N.Q.Olimova. Farg'ona-2023
- 2.Umumiy pedagogika''
B.SH.SHermuhammadov,B.Q.Qurbonova,U.Q.Maqsudov,
M.A.Qo'chqarova,Z.M.Sidikova
3. G.E.Saidova,,pedagogos''jurnali 2022
4. Azizxo'jayevN.N ,,Pedagogika texnologiyalari va pedagogic mahorat''T.2006